



KONCHILAR HAYOTI

Gazeta 1991-yildan chiqqan boshlagan №1 (763), 2024-yil 11-yanvar

facebook.com/nkmkofficial

t.me/ngmkofficial

instagram.com/nkmk.official

www.ngmk.uz



■ 14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni

HARBIY BO'LIQ – YUKSAK SHARAF

Yurtimizda bayramlar, tarixiy sanalar ko'p. Ular orasida har yili 14-yanvarda nishonlanadigan Vatan himoyachilari kunining ijtimoiy hayotimizda alohida o'rni bor. Bu sana O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilgan kun ekanligi uning ahamiyatini yanada oshirishi tabiiy hol, albatta. Bundan boshqacha bo'lishi ham mumkin emas. Zero, Qurolli Kuchlarimiz saflarida burchini o'tayotgan ofitserlar, harbiy xizmatchilar Vatanimiz sarhadlari daxlsizligini, xalqimiz tinchligi va osoyishtaligini ta'minlamoqdalar. Demak, har birimiz baxtli, farovon va osuda turmushimiz uchun harbiylarimizning munosib xizmatlarini qadrlasak, e'tirof etsak arziydi.

2023-yilning 14-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 32 yilligini hamda Vatan himoyachilari kunini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoyishi

bo'ldik. Qism shaxsiy tarkibi zimmasiga yuklatilgan "Navoiy" xalqaro aeroporti va jamoat xavfsizligini ta'minlash, turli terroristik harakatlarning oldini olish kabi vazifalarni sharafla bajarib o'tirdi. Bu yerda harbiy xizmatchilar jan-



g'rilishi, turli tadbirlar qismning zarur ko'rgazmali vositalar bilan jihozlangan klubida, harbiy texnikalar, taktik harakatlarning nazariy mashg'ulotlari jangovar tayyorgarlik sinfidagi, amaliy qismi sport va taktik maydonchalarda o'tkaziladi. Nazariy va amaliy mashg'ulotlar tasdiqlangan kun tartibi va dars jadvali asosida tashkilotirilyapti. Ma'naviy-ma'rifiy sinf xonalarida shaxsiy tarkibning siyosiy bilim oshirilmoqda. Harbiy qismning Amir Temur va Jaloliddin Manguberdi xonasidan buyuk sarkardalarning suratlarini joy olgan, shajaralarini va taktik harakatlari haqidagi ma'lumotlar chiroyli yozib quyilganligi diqqatimizni tortdi. Xona harbiy xizmatchilarning vatanparvarlik tuyg'ularini kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Qismni jismoniy va ma'naviy jihatdan yetuk kadrlar bilan ta'dirishning dastlabki bosqichi bevosita harbiy qismning o'zida o'tadi. Shartnoma asosida harbiy xizmatni davom ettirish niyatida bo'lgan yigitlar bilan ish olib boriladi.

Ichki ishlar vazirligining Xalqaro aeroportlarda xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha harbiy qismlari qo'shinining jangovar shayligini saqlash, xizmatchilarning kasb va jismoniy malakasini, ekstremal sharoitlarda turli jismoniy yuklamalarga ruhiy bardoshligini oshirish maqsadida har yili "Qo'mondon kubogi", "Doviyurak jangchi" musobaqalarini o'tkazish an'anaga aylangan. "Qo'mondon kubogi" musobaqasi 2023-yilning oktabrida mazkur harbiy qismda o'tkazildi. Har biri yetti nafar harbiy xizmatchidan iborat o'n ikkita jamoa sportning turnika tortilish, uzoq masofaga yugurish, yagona to'siqli yo'laklardan yugurish, to'la yuk bilan masofani bosib o'tish, bronetransportyorni jangovar holatga keltirish kabi harbiy-amaliy turlari bo'yicha bellashdilar. Musobaqa yakunida mazkur harbiy qism faxrli birinchi o'rinni egalladi hamda O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Xalqaro aeroportlarda xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha qo'shinlari qo'mondoni tomonidan

o'lting medal, birinchi darajali maxsus diplom, ko'chma kubok va pul mukofoti bilan taqdirlandi. O'tgan yili harbiy xizmatchilardan yetti nafariga uzoq muddatli ipoteka kreditlari ajratildi.

Harbiy qismda vatanparvarlik oyligi doirasida "Uch avlod uchrashuvi" tashkil etildi. Qism vakillari mazkur harbiy qismda xizmat qilib, vafot etgan insonning xonadonida bo'lib, oila a'zolari bilan uchrashdilar. Yangi yil bayrami harbiy qismda, shuningdek, shaxsiy tarkib istiqomat qilayotgan ko'pqavatli uy hovlisida tantanali nishonlandi. Tadbir harbiy orkestr jangovar kuy-qo'shiqlarni ijro etdi, Qorbobo jajji bolajonlarga sovg'alar ulashdi. Harbiy qismda Vatan himoyachilari kunini zo'r shodiyona bilan o'tkazishga puxta hozirlik ko'riyapti. Bayram kuni katta dasturda konsert namoyish etilib, Vatan oldidagi muqaddas burchini bajarishda hamkasblariga o'rnak bo'layotgan harbiy xizmatchilar rag'batlantiriladilar.

Nizomiddin SADRIDDINOV.



e'lon qilindi. Ayni kunlarda qutlug' sana munosabati bilan harbiy qismlar, tashkilot, korxonalar, muassasalar, oliy o'quv yurtlari va bilim dargohlarida "Xalq va armiya – bir tanu bir jon" tamoyili asosida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etilmoqda. Yaqinda O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Xalqaro aeroportlarda xavfsizlikni ta'minlash qo'shinlari tasarrufidagi harbiy qismda

govar tayyorgarlik, ma'naviy-ma'rifiy mashg'ulotlarni yuksak darajada ado etishi, dam olishi, sport bellashuvlarini o'tkazishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Shaxsiy tarkib uchun mahalliy issiq ovqat, harbiy liboslar bilan ta'minlangan. Shinam yotoqxona, oshxonalar, sport zali ular ixtiyorida. Qism kutubxonasi qariyb olti ming nusxada badiiy, siyosiy kitob fondiga ega. Faollar

VATAN OSTONADAN BOSHLANADI

Hayotini Vatan oldidagi xizmatga bag'ishlagan va ayni paytda ham yurtimiz ravnaqi, xalqimiz farovonligi yo'lida fidoyilik ko'rsatayotgan insonlarning hayot yo'li ibratga, mehnatlari tahsinga munosibdir. "Navoiy mashinasozlik zavodi" ICHB direktorining tartibot va qo'riqlash bo'yicha o'rinbosari, qariyb 30 yillik harbiy stajga ega Fatullo Inoyatovich Xodjayev haqida, hech shubhasiz, aynan shu fikrlarni bildira olamiz.

F.Xodjayev 1969-yilda ziyoli oilada tug'ildi. Ikkinchi jahon urushida qatnashib, Reyxstaggacha yetib borgan otasi Inoyat Xodjayev turmush o'rtog'i bilan to'rt qiz va to'rt o'g'lini tarbiyalab, voyaga yetkazishdi. Fatullo ularning eng kenjasi.

– Dadamdan juda yosh qolganman, u kishi dunyodan o'tganda 10 yoshda edim. Dadam qattiq qo'l, mehribon, intizomli, haqqo'y, ilmu ma'rifatlil inson bo'lganlari uchun, bizdan ham shuni talab qilar edilar. Urushdan keyin Buxoro pedagogika institutini tugatib, bir umr maorif xodimi, aniqrog'i maktabda tarix o'qituvchisi bo'lib ishlaganlar. Bizlarga ham har

doim o'qinglar, ilm olib, dunyoni ko'ringlar, deb uqtirar edilar. Ismimni rahmatli amakim Fatullo Xodjayev xotirasiga atab qo'yg'alar. U kishi ham dadam kabi ilmparvar inson bo'lgan ekanlar, - deydi Fatullo aka.

F.Xodjayev 1987-yil harbiy xizmatga chaqirildi. Termiz shahrida uch oylik mashg'ulotlarni o'tgandan keyin, asosiy xizmatni Afg'onistonning Salang darasida o'tadi. Harbiy xizmatning so'nggi oylarini Kavkazning Naxichevan, Tog'li Qorabog' hududiga yaqin joylarda davom ettirdi. Harbiy xizmatdan keyin Toshkent davlat yuridik institutini tugatdi. F.Xodjayev yigirma yilga yaqin Respublika maxsus organ-

larida xizmat qilib, 2014-yilda Adliya podpolkovnigi unvonida iste'foga chiqqach, Navoiy mashinasozlik zavodi direktorining tartibot va qo'riqlash bo'yicha o'rinbosarligiga taklif qilinadi va bugungi kungacha shu lavozimda ishlab kelmoqda.

Keyingi yillarda korxonada tovar-moddiy boyliklarni saqlash bo'yicha qator ishlar amalga oshirildi. Soha xodimlari ishlab chiqarishni rivojlantirishga yordam bermog'ida. Bu xizmatning vazifasi korxonada moddiy boyliklari talon-tarof bo'lishining oldini olish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning vaqtida, joy-joyiga yetkazilishini nazorat qilish va bu bilan ishlab chiqarish faoliyatiga ko'maklashishdan iboratdir...

Fatullo aka nafaqat yaxshi rahbar, balki sportning voleybol turi va kitob shaydosidir. Bu kamtarin inson uch farzandning otasi va ikki nevaraning, Islomxo'ja va Maryamxonning mehribon bobosidir. Turmush o'rtog'ini Surayo opa bilan Mirshod, Zebuniso, Qudratilloxo'jalarni voyaga yetkazib, o'qitib, ularga Inoyat bobo o'g'itlarini singdirishga harakat qilishdi.



Chunki har bir inson ota-bobolari kimligini bilmog'i va ularga munosib bo'lmog'i lozimligini unutmasligi dardordir. Zero, "Vatan ostonadan boshlanadi" deganlari haq gap.

Adiba AXMEDOVA.

MA'NAVYIY-MA'RIFIY TADBIRLAR O'TKAZILDI

Vatan himoyachilari kuni bayram sifatida tantanali nishonlanishi xalqimizning mard, jasur, botir o'g'lonlariga, zabardast va fidoyi yigitlariga, o'z armiyasiga cheksiz hurmatini bildiradi. Markaziy kon boshqarmasining Axborot va ma'naviyat-ma'rifat guruhi tashabbusi bilan boshqarma tarkibidagi bo'linmalarda bo'lib o'tgan tadbirlar ham Vatan himoyachilari kuni va O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil topganligining 32 yilligiga bag'ishlandi.

"Yangi O'zbekiston armiyasi – mamlakat qudrati, yuksak g'urur va sadoqat timsolidir!" shiori ostida "Oltinni uyumda eritmaga

o'tkazish sexi" konida, "Muruntov" shaxtasida va 7-gidrometallurgiya zavodida o'tkazilgan tadbirlarda Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti "O'zbek va chet tili" kafedrasida dotsenti Akmal Tursunov, "NKMK jamg'armasi" DM ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha muhandisi Jonibek Shuhratov, "NKMK/AJ Ma'naviyat va ma'rifat markazi mutaxassisi Asiddin Ro'ziyev hamda Markaziy kon boshqarmasi Idoraviy harbiylashtirilgan qo'riqlash otryadi komandiri Muxammad Axmedovlar Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan barchani samimiy muborakbod etib, o'tgan davr mobaynida Qurolli Kuchlarimiz tarixida muhim o'zgarishlar yuz berganini mamnuniyat bilan tilga olishdi.

"Bu dunyoda er yigitning eng buyuk, ezgu va muqaddas vazifasi, avvalo o'z oilasi, Vatani hamda xalqini munosib himoya qilishdan iboratdir. Aslida Vatanga, xalqqa xizmat qilishga, uning tinchligi va osoyishtaligini asrab, obodligiga hissa qo'shishga har birimiz

mas'ul. Erkin, ozod, tinch, osoyishta yurtda yashayapmiz, oilamiz, yurtimiz kelajagi yo'lida mehnat qilish uchun barcha imkoniyatlar yetarli. Bu albatta, davlatimiz Rahbari tomonidan olib borilayotgan dono siyosat, yurtimizda amalga oshirilayotgan ichkil ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning samarasidir. Ishonamizki, sizlar Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilishni oliy burch deb bilib, zimmaningizga yuklatilgan vazifalarni chuqur his etgan holda, mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishga katta hissa qo'shyapsizlar, - deya ta'kidladi bo'linmalardagi chiqishlarida Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti dotsenti Akmal Tursunov.

Bunday tadbirlar barchani tinchlikning qadriga yetishga chorlabgina qolmay, qalblarda mardlik, jasorat kabi tuyg'ularni kuchaytirishi bilan ham ahamiyatlidir.

Nafosat ZIYOYEVA.

■ Yangiliklar
Xabarlar

MAHSULOT HAJMI OSHADI

"Qizilqum" kon boshqarmasi 1-gidrometallurgiya zavodining 2-texnologik sexida "Qoraqot'on" konining murakkab tarkibli ma'danlarini flotatsion boyitish jarayonida olinadigan flotatsiya boyitmalari qayta ishlanadi. Sexning magnit fraksiyasini qayta ishlash bo'linmasida temir kuporosi eritmasi va tuzi olinadi.

Temir kuporosi tuzi va eritmasi asosan gidrometallurgiya zavodlarida oltin tarkibli ma'danlarni qayta ishlashda hosil bo'ladigan chiqindi bo'tanasining sianidlarini zararsizlantirishda ishlatiladi.

Kombinat bo'linmalarining temir kuporosiga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun bo'linmada rekonstruksiya va kengaytirish ishlari yakunlanib, qo'shimcha 3 dona reaktor, 6 dona sovutgich, 6 dona nutch-filtr va boshqa uskunalar o'rnatildi.

Bu, kelgusida korxonada temir kuporosini ishlab chiqarishni ikki baravarga oshirish imkonini beradi.

MALAKALI KADRLAR – KORXONA KELAJAGI

Navoiy kon-metallurgiya kombinati tasarrufidagi zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlangan kon va zavodlar, transport va ta'mirlash-mexanika korxonalarining bir maromda ishlashi ko'p jihatdan kadrlar malakasi, ularning kasbiy tayyorgarlik darajasiga bog'liq. Shu boisdan kombinatda kadrlarni tayyorlash va tarbiyalash, qo'shimcha kasblarga o'rgatish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi.

Kombinat tizimida kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash maqsadida 5 ta o'quv markazi va bitta o'quv byurosi faoliyat ko'rsatmoqda. O'tgan 2023-yilda 15 ming 48 nafar ishchi-xodim o'z malakasini oshirdi, kasbga o'qitildi. O'quv maskanlarida 5 ming 305 nafar turli kasb egalari qayta tayyorlandi, 6 ming 902 nafari esa malaka oshirdi. Shu bilan birga 2 841 nafar rahbar va muhandis-texnik xodimlar turli o'quv yurtlari va malaka oshirish maskanlarida o'qitildi.

"NKMK" AJ Matbuot xizmati.

ISMI JISMIGA MONAND

Bepoyon Qizilqum cho'llari... Kimdir, qachonlardir odam yursa oyog'i, qush uchsa qanoti kuyadigan bo'lsa inson bolasining qo'li bilan obod maskanlarga aylana, desa ertak bo'lib tuyulishi mumkin edi. Ammo bugun bu ertaklar haqiqatga aylangan rost. Bunda shijoatli yoshlarning munosib o'ri bor.

Umidjon Rahimov ham ismi jismiga monand ana shunday yoshlardan. 2016-yilda Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetini tamomlagach, ilk faoliyatini Markaziy kon boshqarmasiga qarashli "Auminzo-Amantoy" konining burg'lash va portlatish uchastkasida portlatuvchi vazifasida boshlagan U.Rahimov o'rtinchi yildirki, "Turbay" karyeri bosh muhandisining burg'lash va portlatish ishlari bo'yicha o'rinbosari lavozimida davom ettirib kelmoqda. U karyerada ishlab chiqarish jarayoni so'nggi texnologiyalar asosida to'liq kompyuterlashtirilganligi ish samaradorligini oshirishga xizmat qilayotganini ta'kidladi.

- Ayni vaqtda "Turbay" karyerini o'zlashtirish, qazib olish va qayta ishlash quvvatlarini kengaytirish ishlari amalga oshirilmoqda. Kelajakda konning uzunligini qariyb 1,5 kilometr, enini 900 metr va chuqurligini 170 metrga yetkazish rejalashtirilgan. Hozirda kon tarkibida "Barxanli", "Sardor", "Zarqatlam" karyerlarida qazish ishlari jadallik bilan olib borilmoqda. Buning uchun 70 ga yaqin burg'lash uskunalar, buldozer, ekskavator, avtoag'dargich va yuklagichlar safarbar etilgan. Qazib chiqarilayotgan ma'dan temir yo'l orqali qayta ishlash uchun 5-gidrometallurgiya zavodiga tashilayapti. Shuningdek, loyihada ko'zda tutilgan "Turbay – 3-GMZ" oralig'ida 45 kilometrlik masofada temir yo'l qurilishi ishlari yakunlandi. Kondan yiliga 2 million tonna oksidli oltin tarkibli ma'dan qazib olish va 900 nafar yangi ish o'rinlari yaratilishi ko'zda tutilgan, - deydi U. Rahimov.

Umid Rahimovning ratsionalizatorlik takliflari ishlab chiqarishga joriy etib kelinyapti. 2021-yilda hududdagi dizel yoqilg'isi bilan ishlaydigan barha tungi yoritgichlarni quyuqsh panellarga almastirish bo'yicha ratsionalizatorlik taklifining ishlab chiqarishda qo'llanilishi natijasida korxonada yiliga 1 milliard so'm iqtisodiy samaradorlikka erishilmoqda. Ayni paytda qahramonimiz yangi ixtirochilik g'oyalari ustida izlanish olib boryapti.

Gulshan RUSTAMOVA.

Ijtimoiy mas'uliyat

Navoiy kon-metallurgiya kombinati ijtimoiy mas'uliyatni zimmasiga olib, pensionerlar, yolg'iz keksalar, kam ta'minlangan oilalar, bolajonlarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratmoqda. Jumladan, Yangi yil bayrami nishonlanayotgan kunlarda kombinat rahbariyati va kasaba uyushmasi Kengashi hamkorligida xayrli ishlar amalga oshirilyapti.

XAYRLI TASHABBUSLAR BARDAVOM BO'LSIN



Ijtimoiy mas'uliyat davlatimiz siyosatining asosiy yo'nalishlaridan bo'lib, barcha sa'y-harakatlar "Avval – inson, keyin – jamiyat va davlat", degan ezu g'oyaga qaratilgan. Yangi O'zbekistonda ushbu g'oya ostida kuchli ijtimoiy siyosat olib borilmoqda. Davlatimiz tomonidan xalqimizning farovon hayot kechirishi uchun zarur sharoitlar yaratib berilmoqda. Yurtimizda olib borilayotgan bunday xayrli ishlarda kombinat jamoasi faol ishtirok etib kelyapti.

Bizning saxovatli, bag'rikeng xalqimiz bor. Saxiylikdek azaliy an'anamiz hozirgi hayotimizda ham bardavom. Kombinat jamoasi ezu ishlarda birinchi o'ringa chiqib, kam ta'minlangan oilalar, ko'zi ojizlar, karlar jamiyatlariga 2,4 mingta Yangi yil sovg'alari yetkazildi. Shuningdek, kombinat madaniyat xodimlari, sportchilari, Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti, Nukus konchilik instituti va akademik litsey ishchi-xodimlarining 2,5 ming nafar farzandlari ham bunday e'tibordan chetda qolmadi.

Kombinat vakillari Qiziltepa tumani-dagi 36-ixtisoslashtirilgan maktab-internatida tashkil etilgan Yangi yil bayrami tadbirida ishtirok etib, 265 nafar bolajonlarga sovg'a-salomlar topshirishdi. - Kombinat rahbariyatiga rahmat! Har bayramda bolajonlarimizni e'tiborsiz qoldirmaydi. Mehrga muhtoj jajilarimizdan ko'ngil so'rab turadi. Bugungi tadbirida tarbiyalanuvchilarimizga sovg'alar ulashilgani har birining qalbiga cheksiz quvonch bag'ishladi. Bunday e'tibor va g'amxo'rlikdan o'g'il-qizlarimizning qanchalik xursand bo'lishganini bir ko'rsangiz edi, - deydi maktab-internat direktori Otabek Tilavov.

Har yili Yangi yil bayrami munosabati bilan bolajonlarimiz uchun bayram tadbirlari, teatrlashtirilgan tomoshalar tashkil etiladi. 2023-yilning oxiri va 2024-yilning dastlabki kunlarida Navoiy shahridagi "So'g'diyona" jismoniy tarbiya va sport majmuasida, Zarafshon, Uchquduq, Nurobod shaharlari, Zarkent, Zarafobod qo'rg'onlari, Marjonbuloq shaharchasida "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ, "Navoiyuran" davlat korxonasi, "NKMK jamg'armasi" davlat muassasasida mehnat qilayotgan ishchi-xodimlar, shuningdek, ushbu hududlarda yashovchi aholining 50 ming nafardan ziyod farzandlari uchun bayram tadbirlari o'tkazildi.

Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj, kam ta'minlangan qatlami g'e'tibor qaratish, o'zgalar ko'magiga muhtoj va yolg'iz keksalar holidan xabar olish, ularning ko'nglini ko'tarish, beg'araz yordam qo'lini cho'zish kombinat jamoasining savobli amallaridan. Bunday xayrli ishlar, azaliy an'analar bundan keyin ham kombinat ma'muriyati va kasaba uyushmasi Kengashining birinchi darajali vazifasi bo'lib qolaveradi.

Abdumajid JO'RAYEV.

V мире изобретений

ИДЕИ — СЕРЬЁЗНЫЙ РЕСУРС

Кто придумает и подскажет новые технические решения для улучшения производственного процесса и качества продукции, снижения себестоимости, если не работники с изобретательской жилкой, полные новых идей. Именно такие молодые ребята трудятся в инновационном отделе Производственного объединения «Навоийский машиностроительный завод» АО «НГМК».

- У нас работают четыре инженера, - говорит начальник отдела Улугбек Журакулович Рахманов, - и о каждом из них могу сказать, что это грамотные, инициативные, энергичные молодые ребята. Каждый из них трудится в своём направлении. Сегодня речь пойдёт о Нурбеке Эшмуродове, металлурге, который за короткий срок работы в отделе отличился не только внедрёнными рационализаторскими предложениями, но и авторскими патентами на изобретения. Он прекрасно знает всю цепочку металлургического производства, поскольку имеет большой стаж и опыт работы на литейном производстве. Помогает рабочим в подготовке необходимой документации для оформления рацпредложений. В основном, его деятельность в отделе направлена на снижение себестоимости выпускаемой продукции литейного производства и, следовательно, на повышение рентабельности основной продукции всего комбината.

Нурбек Эшмуродов в 2006 году окончил Навоийский горный колледж по направлению «Литьё и плавка чёрных и цветных металлов» (ЛПМ). Ещё во время производственных практик в ПО «НМЗ» руководство предприятия отмечало его искреннюю заинтересованность профессией, инициативность и энтузиазм. Поэтому по окончании колледжа его пригласили на работу в литейный цех.

- Я начинал подручным сталевара с 4 разрядом, через несколько месяцев стал сталеваром, - вспоминает Нурбек. - Работал на печи ДСП-6 по плавке чёрных металлов 9 лет. Мне нравилась моя работа, нравился сам процесс плавки. Затем, чтобы расширить свои знания, перешёл на отделение плавки цветных металлов заливщиком. Там я проработал 7 лет. Таким образом, у меня 16 лет «горячего» стажа. Словом, об изделии из металла я знаю всё – как кулинару на кухне. Знаю, как правильно изготовить то или иное изделие, могу выбрать определённый сплав и изготовить его, и точно буду знать, при какой нагрузке изделие будет работать, при каком давлении, при какой атмосфере, в кислотной или щелочной среде...

В тот же год, когда Нурбек начал работать в литейном цехе, он поступил на

вечернее отделение Навоийского промышленного техникума по специальности «Техник-механик» по двум причинам. Во-первых, эти знания были необходимы, чтобы делать запасные детали для горно-шахтного оборудования - как техника работает, в каких условиях, где используются зубчатые колёса или зубчатые венцы, где какие подшипники нужны, какая должна быть толщина футеровки для помолы руд и т.д. Это всё молодому специалисту очень пригодилось и помогло в дальнейшей работе. А во-вторых, Нурбек хотел стать мастером. Правдой, когда он окончил техникум, его переименовали в колледж, поэтому с дипломами колледжа мастером стать не получилось.

- Но я не унывал, - говорит Нурбек. - Много читал специальной литературы, изучал опыт других предприятий. И в 2018 году наш президент издал указ об открытии специального заочного обучения, благодаря которому я поступил в Навоийский государственный горный институт (ныне НГГТУ) на заочное отделение металлургического факультета. Было интересно почувствовать себя вновь студентом, хотя к тому времени у меня уже было четверо детей. Старшие сыновья даже помогали мне писать конспекты, так что учиться было легко. Тем более, что в учебниках и на стендах в институте было наглядно пропечатано то, с чем я работаю ежедневно. Через три года окончил институт, и меня перевели в инновационный отдел завода.

В инновационном отделе Н.Эшмуродов работает почти полтора года, но за это время показал отличные результаты изобретательской деятельности. Это 10 рационализаторских предложений, касающихся, в основном, литейного производства. Среди них, предложение по производству жидкого стекла с применением микрокремнезёма (отход от кремниевой промышленности), по изменению конфигурации футеровок, а также по локализации некоторых деталей, которые теперь не приходится приобретать у иностранных производителей и многие другие. Следовательно, снижается себестоимость, нет проблем с материалами и распадами.

Кроме того, у Н.Эшмуродова есть два патента на изобретённые им сплавы. Это износостойкий белый чугун, применяем-



нь, в основном, на гидрометаллургическом производстве в деталях насосов, которые предназначены для перекачки пульпы под большим давлением. Их абразивный износ очень велик, следовательно, насос из простого углеродистого металла будет работать минимум 1-2 дня, а из износостойкого белого чугуна - на протяжении нескольких месяцев. Второй патент получен Н.Эшмуродовым на сплав 60 ГРЛ, который заменил дорогостоящий импортный хромо-молибденовый сплав. Сплав получился из доступных и менее дорогих элементов, таких как марганец и бор. Он прошёл тестирование и показал хороший результат.

На сегодняшний день ещё 2 изобретения Нурбека Эшмуродова отправлены на экспертизу в Ташкент – это «Антипригарная краска для литейных форм» и «Пылеподавление в горных карьерах».

- В работе мне, конечно, помогает большой производственный опыт, - говорит Н.Эшмуродов. - Но без помощи, поддержки и соавторства моего наставника Улугбека Журакуловича было бы сложнее. Он грамотный специалист и очень хороший наставник, знает все проблемы на заводе, и стимулирует нас на, так называемый, «мозговой штурм». Мне интересно здесь работать, потому что можно многое сделать для производства, есть возможность думать, проводить эксперименты, воспроизводить задуманное. В литейном цехе я могу лично расплавить сплав и изготовить заливку, по ходу работы могу и подкорректировать процесс.

Помимо заданий руководства, Нурбек сам часто бывает в литейке и её отделениях, а также в других цехах, куда поступают отлитые детали. Работает не только над тем, как улучшить деталь, какой сплав лучше подобрать, но и как усовер-

шенствовать процесс деятельности.

- В будущем хочу параллельно с производством преподавать в нашем горно-технологическом университете, - рассказал о своих дальнейших планах Нурбек. - У меня огромное желание делиться знаниями и опытом с молодёжью. Тем более, что мы тесно работаем с вузами страны. Например, учёные ТашГУ изобретают и опробуют новые сплавы на базе нашей литейки, то есть теорию внедряют в практику. Ведь теория, наука и производство – это сильная команда.

А пока молодой изобретатель активно участвует на научных форумах. В октябре этого года Н.Эшмуродов вместе с У.Ж.Рахмановым представлял АО «НГМК» на двух международных научно-практических конференциях. На XXVII международной научно-практической конференции «Инновация-2023» он выступил с докладом «Дополнительное легирование сплава марки 300Х32Н2М2ТЛ бором для увеличения износостойкости материалов», на конференции «Интеграция науки, образования и производства машиностроения: тенденции, методы и решения» выступил с докладом «Усовершенствование конструкции футеровки шаровой мельницы». Выступления были грамотными, достойными и его идеи получили высокие отзывы международных учёных.

Такие грамотные, инициативные молодые работники комбината, как Нурбек Эшмуродов – серьёзный инженерный ресурс любого производства. Действительно, если шире взглянуть на мир, наполнить повседневный труд новыми идеями, можно принести пользу не только коллегам, но и предприятию в целом!

Насиба ШАМУРАТОВА.

"Navoiyuran" davlat korxonasida

RAQAMLASHTIRISH — DAVR TALABI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-iyuldagi "2022-2030-yillarda "Navoiyuran" davlat korxonasida uranni qazib olish, qayta ishlash hajmlarini oshirish hamda uni transformatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarini to'liq raqamlashtirish orqali korxonani zamonaviy va raqobatbardosh kompaniyaga aylantirish vazifasi belgilangan bo'lib, bugungi kunda qaror ijrosini ta'minlash maqsadida muayyan ishlar olib borilmoqda.



Buning uchun mavjud tizimlardan olinadigan ma'lumotlar bazasini shakllantirish va yangi tizimga integratsiya qilish choralari ko'rilmogda. IT yo'nalishidagi yuqori malakali xodimlar va raqamli transformatsiya bo'yicha tajribaga ega xorijiy va mahalliy kompaniyalar bilan o'ratilgan tartibda hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilmogda.

Xususan, korxonaning SCADA (supervisor control and data acquisition) tizimini takomillashtirish doirasida "Uran va noyob metallar geologiyasi" ilmiy ishlab chiqarish markazi geologik laboratoriyasi faoliyatining asosiy biznes jarayonlarini raqamlashtirish ishlari boshlandi. Bunda namunalarini tahlil qilish, birlamchi ma'lumotlarni kiritish, operatsiyalarni hisobga olish, tahlil qilinaotgan namunalar bo'yicha tartibga solinadigan va tahliliy hisobotlarni raqamlashtirish bo'yicha "Laboratoriya ma'lumotlarini avtomatlashtirish boshqarish" tizimini yaratish uchun texnik topshiriq ishlab chiqildi. Dasturiy ta'minotni ishlab chiqish uchun elektron tanlov tashkil etilib, tan-

lov natijasiga ko'ra "IT Works" kompaniyasi g'olib deb topildi va u bilan shartnoma imzolandi. Bugungi kunda elektron tizim to'liq ishlab chiqildi va xodimlarni o'qitish ishlari olib borilmoqda.

Tizimni joriy qilishda laboratoriya faoliyati avtomatlashtirildi hamda namunalarini QR-kod orqali kuzatish imkoniyati yaratilmogda. Yagona integratsiyalashgan axborot muhitini yaratish va laboratoriya tadqiqotlarini sifatli tashkil etish orqali biznes-jarayonlarni takomillashtirish natijasida korxonaning laboratoriya boshqaruv jarayonlari samaradorligi oshirildi. Ushbu tizimni yaratish jarayonida qaror natijalarga erishiladi.

Jumladan, laboratoriyalar ustidan markazlashtirilgan nazorat va yagona boshqaruv tizimi joriy qilinadi, natijalarni olish muddatlarini qisqartirish va laboratoriya tahlillari bo'yicha ma'lumotlarni olish tezligi oshiriladi, boshqa turdosh laboratoriyalar bilan operativ hamkorlik qilish imkoniyati yaratiladi, xodimlarning mehnat sama-

radorligi oshiriladi, namunalar bilan ishlash vaqti optimallashtiriladi, namunalar qabul qilingan paytdan boshlab laboratoriya natijalarini olishiga cha bo'lgan vaqtni qisqartirish orqali tahlillarning samaradorligi oshiriladi. Dispetcherlar, laborantlar faoliyati to'g'risidagi statistik ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish, shuningdek, yig'ilish bo'yicha shakllantirish orqali bo'limlar ishini rejalashtirishga erishiladi, namunalarining harakatlanish vaqti va yo'nalishini nazorat qilish orqali xodimlarning intizomiy yanada yaxshilanadi.

Qaror ijrosini ta'minlash maqsadida Kuzatuv kengashi yig'ilishlarini, ovoz berish jarayonlarini hamda yig'ilishni bayonlashtirish jarayonlari avtomatlashtirilgan e-protokol veb tizimi yaratildi. Mazkur tizim orqali masofadan turib yig'ilishlarni videokonferensiya aloqa yordamida tashkillashtirish, dasturda yig'ilishlarda ko'rildigan masalalar, ular bo'yicha hujjat va ma'lumotlarni elektron ravishda taqdim etish, yig'ilishda ko'rib chiqilgan masalalar yuzasidan Kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan ovoz berish ishlarni elektron amalga oshirish, yig'ilish yakuni bilan dasturda yig'ilish bayonini avtomatik ravishda shakllantirish, yig'ilish bayonnomasini tasdiqlashni elektron raqamli imzo orqali amalga oshirish va bayonnomani maxsus QR-kod yordamida Kuzatuv kengashi raisi tomonidan tasdiqlash, dastur orqali o'tkazilgan yig'ilishlarning videoyozuvini yozib olish imkoniyatlarini yaratildi.

Yig'ilishgacha masalalar yuzasidan paydo bo'lgan savollarga aniqlik kiritish maqsadida dasturning o'zida elektron chat yaratildi.

Raqamli transformatsiyadan maqsad zamonaviy raqamli iqtisodiyotda samarali faoliyat yuritiladigan va xalqaro bozor tamoyillariga moslasha oladigan kompaniyaning yangilangan barqaror biznes modelini yaratishdan iborat.

Bundan tashqari, qarorda belgilanganidek, korxonaning moliya, xaridlar, kadrlar, omborxonalar va eksporti to'liq qamrab oladigan resurslarni boshqarish (ERP) axborot tizimi yaratildi hamda uran xomashyosini qazib olish, dastlabki va oxirgi qayta ishlash bosqichlarini boshqarish bo'yicha (SCADA) raqamlashtirilgan tizimi takomillashtiriladi.

Javohir XAFIZOV,
"Navoiyuran" DK Loyiha ofisi raqamli transformatsiyani joriy etish bo'limi boshlig'i.

■ Davlat mukofoti sovrindorlari

Inson bilimi, kasb-kori, fe'l-atvori, mehnati bilan hurmat topadi. Shunday fazilatlar sohibi shubhasiz baxtli. Zero, insonga bir marta beriladigan hayotda baxtli yashagimiz keladi va bunga barchamiz to'la haqlimiz. Mazmunli, ibratli hayot kechirish esa o'z qo'limizda. Chunki odam o'z taqdirini o'zi yaratadi. Shoir aytganidek: "G'oyibdan kelajak baxt, bu – afsona". Qaysiki inson, biror sohaga chin ko'ngildan mehr qo'ysa, albatta, uning ustasi bo'lib yetishadi. Istagan kasbini tanlasa, hayotda ko'p narsaga erishadi, o'ziga va yurtiga naf keltiradi.

TAQDIRIN QO'L BILAN YARATGAN ODAM



Bu tashbehlar Shuhrat Sadinovga nisbatan aytilgandek qo'yo. Bu insonning ilmi, tajribasi, fikrlash doirasi, muomalasi, mehnatsvarligi aynan shunga mos keladi. U kishi haqida atrofidaqilardan ham ko'p yaxshi, iliq gaplar eshitdim.

Quvonchli kunlar arafasida "Do'stlik" ordeni bilan taqdirlangan hamkasbimiz quyidagi dil so'zlarini izhor etdi:

- Bolaligim Narpay tumanida o'tgan. Otam oriyatli, hamisha dasturxonni ochiq, elning yaxshi-yomon kunlarida doim boshida turgan inson bo'lgan. Hozir ham qishloqdoshlarim ko'p eslashadi. Oilada besh o'g'il bo'lganimiz bois, otam rahmatli tarbiyamizga juda qattiqqo'l, biror xato qilsak, o'tkir nigohlari bilan qarashi biz uchun eng katta jazo edi. Umri davomida farzandlarini faqat halollik, to'g'riso'zlikka o'rgatdi.

Onam Qo'ysin momo, ziyoli, oqko'ngil, farishtali ayol edilar. Onamiz butun umrini o'qituvchilikka, qishlog'imiz bolalarining ilmi bo'lishiga bag'ishladi. Jonkuyar, fidoyi pedagog sifatida hurmat-e'tibor qozongan shundan. Bilasizmi, so'zim avvalida ota-onamni (joylari jannatda bo'lsin, ilohim!) eslaganim bejizga emas. Bugun biz, farzandlarimiz nimagay erishgan bo'lsak, barchasida ularning beqiyos xizmati bor.

O'rta maktabni tugatgach, ma'lum muddat jamoa xo'jaligida ishladim, harbiy xizmatda bo'ldim. Marksheyder bo'lishga qaror qilib, Toshkent politexnika institutiga hujjat topshirdim. Mening bu orzuim ko'pchilikka erish tuyladi. Orqa-sirtidan o'qishga kirolmay-

di, eplolmaydi, deganlar ham bo'ldi. Chunki, bu kasbni egallash matematika, fizika, texnika, astronomiya, geodeziya, geologiya, konchilik ishi va boshqa fanlar bilan chambarchas bog'liq. Buning uchun bo'lajak marksheyderda shunga yarasha bilim, qiziqish bo'lishi kerak. Menda bunday ishtiyoq bolaligimdan bor edi. Tabiiy fanlardan "a'lo" bahoga o'qiganman, adabiyotlar orqali tanishganman. Natijada qattiq kirishib, barchasini uddaladim, o'qishga kirdim, oliyog'ni tamomladim.

Bilasizmi, marksheyderlik kasbi juda noyob, ko'pchilikka tanish bo'lmagan, qiziqarli soha hisoblanadi. Bu konchilik fani va texnikasining bir tarmog'i hisoblanadi. Marksheyder foydali qazilmani qazib olishning har bir bosqichida (qidiruv, loyihalashtirish, shaxtalarni qurish, qazib olish, kon korxonalarini tugatish va h.) qatnashadi. Yer qatnashadi. Yer qatnashadi qazilma uyumining shakli va o'lchami, qazilmada foydali va zararli komponentlar joylashuvi, o'zida saqlovchi jinslar xususiyati, kon bosimi va yer yuzasi jinslarining deformatsiyasiga to'g'ri tashxis qo'yish, grafik loyihalarni

chizish, chizmalarni chuqur tahlil qilish, konlar ko'rinishini fazoviy geometrik o'lchash usullari bilan xaritaga tushirish va boshqa shunga o'xshash o'nlab yo'nalishlar uning asosiy vazifasidir.

Inson hayotida yoddan chiqarib bo'lmaydigan voqealar ko'p bo'ladi. O'tgan faoliyatim davomida qator korxonalar va tashkilotlarda marksheyder bo'lib ishladim. Avvaliga o'zim ustozlardan ish o'rgandim, tajriba ortirdim. Keyinchalik esa tajribamni shogirdlarim, yosh mutaxassislar bilan o'rtoqlashdim.

2006-yildan Navoiy kon-metallurgiya kombinatida ishlab kelyapman. Bu korxonaga kelib kam bo'lmadim. Mehnatim ortidan hurmat-e'tibor topdim. Korxonadagi mehnatim 2016-yilda "O'zbekiston mustaqilligiga - 25 yil", 2017-yilda "O'zbekiston Konstitutsiyasiga - 25 yil" esdalik nishonlari, II, III darajali "Konchilik shuhrati" ko'krak nishonlariga munosib topildi.

Yaqinda Prezidentimiz Farmoni bilan "Do'stlik" ordeni bilan mukofotlandim. Kombinatlarda topganligining 65 yilligi munosabati bilan berilgan bu mukofot nafaqat men, balki hamkasblarim, oilam a'zolari, mahalladoshlarimga ham katta quvonch bag'ishladi. Navoiy shahridagi "Farhod" madaniyat saroyida mukofotni qabul qilib olarkanman, qalbm g'ururiga to'ldi. Bu butun jamoam mehnatining e'tirofi bo'ldi. Mashaqqatli mehnat, albatta, o'z samarasini berishiga yana bir bor amin bo'ldim. Yurtboshimiz nazargiya tushish har bir inson uchun katta baxt, albatta. Endilikda yanada kuch-g'ayrat, shijoat bilan mehnat qilib, bu yuksak ishonchni oqlayman.

Kasbimni yaxshi ko'raman. 34 yillik mehnat faoliyatimda ko'plab ustozlar ilmini oldim va o'z navbatida shogirdlar yetishtirdim. Har bir kasbning o'ziga yarasha mashaqqatlari bo'ladi. Shu boisdan kishi har qanday holatga tayyor turishi kerak. Shogirdlarimga sabr, matonat, chidam va o'z ustida qunt bilan ishlash barcha to'siqlarni yengib o'tishda muhim omil bo'lishini bot-bot takrorlayman.

Aslida insonning kasbi-kori ortidan baraka topishi uning samarali mehnatidan tashqari atrofidaqil hamkasblari, do'stlariga ham bog'liq. Jamoamda malakali mutaxassislar, kamtar va samimiy insonlar ko'p. Har tong ishga otlanar ekanman, sevgan kasbim, ahil jamoam borligini his qilish menga qanot bag'ishlaydi, behad ruhlantiradi.

Har bir daqiqadan unumli foydalanishga, oldimga qo'yilgan maqsadlarimga erishishga intilaman. Intilish doimo muvaffaqiyat eshiklarini ochaveradi. Ishdan so'ng oilam davrasiga oshiqaman. Uch nafar farzandimni o'qitdim, uyli-joyli qildim. To'rt nafar shirindan - shakar nabiram bor. Bir inson orzu qiladigan baxtning egasiman: sermazzun hayot, namunali oilam, sevgan kasbim, sevimli jamoam bor. Bularning barchasi uchun Yaratganga shukronalar aytaman. Bu shukronalik meni yangi manzillar, yuksak pillapoyalar sari undaydi...

BOBODO'STOV "SHUHRAT"GA MUNOSIB

Navoiy mashinasozlik zavodi quymachilik sexi boshlig'i Zafar Bobodo'stov metallurgiya va mashinasozlik tarmoqlari rivojlanishiga munosib hissa qo'shib kelayotgan soha fidoilaridan biri. U Prezidentimizning "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati tashkil etilganining 65 yilligi munosabati bilan ishlab chiqarish ilg'orlaridan bir guruhini mukofotlash to'g'risida"gi Farmoni bilan davlat mukofoti – "Shuhrat" medaliga munosib ko'riildi.

1970-yilning 27-martida Jizzax viloyati Baxmal tumanining "Jarbuloq uyasi" qishlog'ida tavallud topgan Zafar Majidovich bolaligidanoq aniq fanlarga qiziqishi bois metallurgiya sohasini tanladi. U 1990-1995-yillarda Toshkent davlat texnika universitetida quymachilik ishlab chiqarishi mashinalari va texnologiyasi mutaxassisligi bo'yicha tahsil oladi. Yo'llanma bilan Navoiy mashinasozlik zavodi quymachilik sexiga kelgan yosh mutaxassis qo'ldan qolqilish o'zakchisi sifatida mehnat faoliyatini boshladi. Unga tajribali metallurg, ancha yillar sex boshlig'i bo'lib ishlagan Yo'ldosh G'aniyev ustozlik qildi. U tez orada oddiy ishchidan muhandis-texnolog, eritish uchastkasi ustasi, eritish bo'limi ustasi kabi mas'uliyatli lavozimlarga ko'tarildi.

Hozir zavodda tayyorlanayotgan o'ta yuqori aniqlikdagi sifatli metall konstruksiyalar, uskuna va jihozlar, kombinat bo'linmalari uchun turli rusumdagi dastgohlar, jihozlar, nostandart uskunalar, ehtiyot qismlar, nasos, armatura va konveyer roliklari kabi ko'plab mahsulotlarning metali quymachilik sexida tayyorlanadi. Zafar Majidovich rahbarlik qilayotgan sex jamoasi kombinatda olib borilayotgan keng ko'lami modernizatsiya va yangi korxonalarini qurish uchun zarur metall mahsulotlarni o'z vaqtida yetkazib berish bilan birga mahalliylash-



tirilgan va import o'rmini bosuvchi mahsulotlar turini ko'paytirishga ham katta hissa qo'shmoqda. Sexda 7 ming turdagi mahsulot ishlab chiqarilib, hajmi ham yildan-yilga oshib boryapti. Masalan, 2021-yilda zavodda quyma mahsulotlar ishlab chiqarish 28 ming tonnan tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda, bu ko'rsatkich 31 ming tonnadan oshdi.

Tajribali rahbar Z.Bobodo'stov texnik yangiliklarni o'zlashtirishda katta tajriba-

ga ega. Uning ratsionalizatorlik takliflari ishlab chiqarishga samarali tatbiq etilmoqda.

Zafar aka bir necha patentlangan ixtirolar muallifi hamdir. Jumladan, bugun ishlab chiqarishda qo'llanilayotgan "Quyma cho'yan olish usuli", "Yuqori tozalikdagi ferraborni olish usuli", "Yuqori marganesli po'lat ishlab chiqarish usuli" va "Eylilishga chidamli po'lat", "Ferravonadiny olish usuli" kabi ixtirolari yuqori samaradorligini ko'rsatyapti. Zafar Majidovich qora va rangli metallar metallurgiyasi bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun ilmiy izlanish ham olib bormoqda.

– Seximizda 663 nafar ishchi-xodim ishlaydi. Biz bitta oila bo'lib, hamjihatlikda mehnat qilayotganimizdan rejalarimiz o'z vaqtida bajarilayapti. Metall eritishdan tortib, uni sifatli qoliplashgacha bo'lgan jarayonni nazorat qilish asnosida metall quyuvchilar, texnologlar bilan birgaman, – deydi qahramonimiz.

Z.Bobodo'stov tajribali metallurg sifatida ko'plab mahalliy po'lat erituvchi mutaxassislar ustozlik qilayapti. Eritish bo'limi uchastka boshlig'i Jamol Hamroyev, rangli quyma uchastka boshlig'i Nor-dir Tursunov, sex ustasi Anvar Ismoilovlar uning shogirdlaridir.

Zafar Majidovich uch qiz va bir o'g'lining mehribon otasi, uch nafar nevaraning suyuqli bobojonisi. Turmush o'rtog'i Shahnoza Bobodo'stova tikuvchilik qilib, ro'zg'origa baraka kiritish barobarida farzandlariga yaxshi tarbiya berdi. Kelajakda ota kasbini tanlab, kombinat tizimida ishlash orzusida bo'lgan o'g'li Zahiriddin hozirda Toshkent davlat texnika universitetida tahsil olyapti. Zafar Bobodo'stovning mazmunli hayoti, ishlab chiqarishdagi faoliyati har jihatdan ibratlidir.

Azamati ZARIPOV.

MASHAQQATLI MEHNATNING NONI SHIRIN

Navoiy kon-metallurgiya kombinatining 65 yilligi munosabati bilan Janubiy kon boshqarmasining uch nafar xodimi davlatimizning yuksak mukofoti bilan taqdirlandi. "Mehnat qilgan elda aziz", deydi dono xalqimiz. Bugun biz hikoya qilmoqchi bo'lgan inson o'z mehnati ortidan hurmat-e'tibor qozongan.

Konchi va metallurgik sharaffi kasb hisoblanadi. Ushbu kasblar har bir xodimdan yillar davomida tajriba to'plash va sabr-toqatni talab qiladi. Kon boshqarmamizda ham uzoq yillar mobaynida o'z kasbga mehr qo'yib, konchilik sanoatini rivojlantirishdek ishda bilim tajribasini ayamay sidqidildan xizmat qilib kelayotgan xodimlar talaygina.

Ulardan biri fidoiy hamkasbimiz R.Bekqulovdir. "Zarmitan" koni 1-er osti kon qazib olish ishlari uchastkasi kon ishchisi Razzoq aka

yigirma yetti yildan buyon kombinat tizimida samarali mehnat qilib kelmoqda. Konning rejaviy ko'rsatkichlari bajarilishida bu insonning hissasi kattadir.

U ustoz-shogird amaliyotini keng targ'ib etgan holda, kon bo'limlarining yosh muhandis-texnik xodimlariga murabbiylik qilib, o'zining kasbiy tajribasini yoshlarga o'rgatyapti. Shuningdek, u o'zi istiqomat qilayotgan mahallada ham tashkiliy, ma'naviy-ma'riy ishlar, mahalla yig'inlari, obodonlashtirish va boshqa tadbirlarda faol qatnashib, bu borada ham boshqalarga o'rnak bo'lmoqda.

Tajribali konchi Razzoq Berdiqulov O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik-jamiyati tashkil etilganligining 65 yilligi munosabati bilan ishlab chiqarish ilg'orlaridan bir guruhini mukofotlash to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq, "Shuhrat" medali bilan taqdirlandi.

Bu mukofot, yer qatnashgan ma'dan qazib olishga hissa qo'shayotgan qahramonimizni mashaqqatli kasbida yanada samaraliroq ishlashga ruhlantiradi, albatta.

Dildora ATABAYEVA.

YUKSAK E'TIROF MAS'ULIYATI

Navoiy kon-metallurgiya kombinati jamoasi mehnati e'tiborda va hamisha o'z rag'batini topib kelyapti. Yaqinda Prezidentimiz Farmoniga muvofiq, 20 nafar hamkasbimiz yuksak Davlat mukofotlari bilan taqdirlangani buning isboti. Ular orasida Janubiy kon boshqarmasi 4-gidrometallurgiya zavodi direktori Asqar Zokirovning ham borligi, "Shuhrat" medali bilan mukofotlangani uning hayotida unutilmas voqea bo'ldi.

Asqar aka haqida hamkasblarimizdan ko'p eshitganman. Uni yosh, harakatchan, kelajagi bor mutaxassis, deyishadi. Aslida ham shunday. Chunki, 28 yoshida 4-gidrometallurgiya zavodiga bosh muhandis, 31 yoshida korxonalar rahbarligiga tayinlanishi ko'pchilik, ayniqsa, yoshlar hayotida kamdan-kam ro'y beradigan hodisa, qolaversa unga bildirilgan ishonchdir. Zero, katta zavodni, jamoani boshqarish oson emas. Faqat qobiliyatli kishilargina bunga qodir bo'ladi. Asqar Zokirovda shunday iqtidor borligini sezib, rahbariyat uni zamonaviy texnologiyalarga asoslangan korxonalar direktorligidok mas'uliyatli lavozimga tayinlaganligi yosh kadrlarga e'tibordan nishonadi. Hayot qahramonimizni sohaning yetuk rahbarlari, mehribon insonlarga duch qilgani uning uchun yorqin kelajak, porloq istiqbol yaratdi.

Asqar Zokirovning hayot yo'li tengdoshlarinikidan keskin farq qilmaydi. U ayni paytda o'zi rahbarlik qilayotgan, o'n oyda barpo etilgan zavod qurilishida faol ishtirok etib, rahbarlar e'tiboriga tushdi. A.Zokirov Toshkent viloyatining O'rtachirchiq tumanidan kelib, Navoiy kon-metallurgiya kombinatida o'z o'rini topib borayotgan mutaxassis.

Uning otasi Axmedjon aka ham Janubiy kon boshqarmasining qurilish-ta'mirlash sexida qorovul bo'lib ishlab, korxonalar rivojiga kamtarona mehnati sing-

gan, izzat-ikrom bilan nafaqaga chiqqan hamkasblarimizdan. Shu boisdan bo'lsa kerak, Asqar aka konchilik ishiga havas qilib, shu kasbni tanlashga qaror qildi. 2009-yilda Navoiy davlat konchilik instituti (hozirgi Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti)ni konchilik elektr mexanikasi yo'nalishi bo'yicha tamomladi. Ish faoliyatini "Zarmitan" konining Zarmitan oltin saralash uchastkasi boshqaruv puli operatorligidan boshladi. 2010-yilda uchastka barpo etilayotgan 4-gidrometallurgiya zavodi tarkibiga o'tkazilgandan buyon uning mehnat faoliyati mazkur korxonalar bilan chambarchas bog'liq. Yangi korxonalar qurilishi, texnologik asbob-uskunalarini montaj qilish ishlarida tajriba to'plagan A.Zokirov lavozim pillapoyalaridan dadil ko'tarilib, hozirgi kunda zavod jamoasiga rahbarlik qilmoqda.

- Bilasizmi, taqdirimni kombinatdan ayri tasavvur qila olmayman. Mehnat faoliyatim davomida salohiyatli ustozlar, konchi va metallurglarning g'amxo'rliqi, maslahatlari bilan ko'p narsalarni o'rgandim. Kasbimga mehrim oshdi, sohaning yetuk, tajribali mutaxassis bo'lish, bilim va mahoratimni shu yo'lda safarbar etish bosh maqsadimga aylandi. Ustozlardan odamlar bilan ishlash, ularni yagona maqsad sari yo'naltirish sir-asrorlarini o'rganayapman. "Shuhrat" medali bilan taqdirlanganim meni yanada g'ayrat bi-



lan ishlashga undayapti. Davlat mukofoti-bu yuksak ishonchdir. Ishonchni oqlash uchun bor imkoniyatimni ishga solish, amaliy natijalar bilan javob berishim kerakligini teran his qilaman. Zavodimiz kombinatning ilg'or korxonalaridan. Jamoamiz katta maqsadni ko'zlab mehnat qilmoqda. Korxonamizda ishlab chiqarish quvvatini loyihaga nisbatan 17-20 foizga ko'tarish, yarim tayyor mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshira borishni mo'ljallaganmiz. Ahil jamoamiz bu ulug'vor vazifalarni albatta oshirib bajarishga erishadi.

Darhaqiqat, bu mukofot qahramonimizga kuch-g'ayrat bag'ishlab, uni yangi g'oyalar, yuksak marralar sari ruhlantiradi. Zero, e'tibor va e'tirof yuksak g'alabalarga yo'l ochadi. Kombinatlari rivoji yo'lida kamtarona mehnat qilib kelayotgan Asqar Zokirovga serqirra faoliyatida omdalar yor bo'lishini tilab qolamiz.

Dildora KARIMOVA.

KASBINI SHARAFLAB

"Qizilqum" kon boshqarmasiga qarashli 1-gidrometallurgiya zavodining 2-texnologik sexi gidrometallurg-apparatchisi To'liq Irgashov Navoiy kon-metallurgiya kombinati tashkil etilganligining 65 yilligi munosabati bilan davlatimiz rahbarining Farmoniga muvofiq "Shuhrat" medali bilan taqdirlandi.

- Qariyb qirq yildan buyon konchilik tizimida mehnat qilib kelmoqdaman. Kombinatlarning shonli sanasi men uchun qo'shaloq bayramga aylandi, "Shuhrat" medali shohi bo'ldim. Bu yuksak mukofot menga g'urur va iftixor baxsh etib, bundan buyon ham Vatani taraqqiyot yo'lida fidokorona mehnat qilish, yangi marralarini egallashga ilhomlantiradi, deydi T.Irgashov.

Bolaligi va o'smirligi Navbahor tumanida o'tgan To'liq Irgashov Navoiy shahridagi kasb-hunar texnika bilim yurtini tugatib, 1983-yilda Navoiy kon-metallurgiya kombinati Markaziy kon boshqarmasi 2-gidrometallurgiya zavodiga metallurg-apparatchi bo'lib ishga joylashadi. Qurolli Kuchlar safida ikki yil muddatli harbiy xizmatni o'tagach o'z sohasi bo'yicha ishini davom ettiradi. Bir muddat Birlashgan energiyaxizmat xlor uskunalar operatori, 1995-yildan to hozirgi vaqtgacha 1-gidrometallurgiya zavodi 2-texnologik sexining gidrometallurg-apparatchisi bo'lib ishlab kelmoqda.

- Uskunalarining ishlashini avtomatik boshqarish bilan ma'dan, konsentratlar va boshqa xomashyolarni gidrometallurgik qayta ishlash, avtoklav pulpasini ajratish, gidrosikonlar bo'yicha ikki bosqichli boyitish, yotiq eritmalar va pulpalarni filtrlash, ko'p komponentli eritmalar va reaktivlar tayyorlash va ularning tavisiflarini chuqur bilish To'liq Irgashovga ish jarayonida vujudga keladigan kamchiliklarni qisqa muddatlarda bartaraf etishga imkon beradi. Tajriba va sinovlar amalga oshirilgan-da o'z kasbining mohir ustasi sifatida holatni tekzor tahlil qilib, to'g'ri qaror qabul qila oladi. To'liq akaning asosiy fazilatlarini bu o'ziga bo'lgan talabchanlik va topshirilgan ishga mas'uliyat bilan yondashishdir, – deydi 2-texnologik sex boshlig'i Jo'rabek Hamroyev.

So'nggi yillarda oliy o'quv yurtlarini va kasb-hunar kollejarini tamomlagan 115 nafar yosh kon boshqarmasiga ishga qabul qilindi. Ularning 8 nafari 2-texnologik sexda mehnat qilmoqda. To'liq aka kasbiy tajribasidan kelib chiqqan holda yoshlarga murabbiylik qilib, ularning



ish o'rganishida har tomonlama yordam ko'rsatmoqda. J.Hamroyev, B.Ro'ziyev, A.Rayimov, B.Ochilov, P.Abramov singari mutaxassislar T.Irgashovni o'zlarining ustozlari deb bilishadi.

To'liq aka kasbga mehr uyg'otgan va haqiqiy gidrometallurg bo'lishiga hissa qo'shgan ustozlari F.Soyibov, V.Shirin, Yu.Klinkov, A.Volodinlarni hurmat bilan yodga oladi.

Mehnatsevar bu inson kon boshqarmasi rahbariyati tomonidan bir necha marotaba Faxriy yoriqlar bilan taqdirlangan. Adiba AXMEDOVA.

Xabarlar

NURONIYLAR HAYOT YO'LI DOIMO O'RNAK

O'zbekiston konchilik va metallurgiya sanoati faxriylari Kengashi Navoiy filiali tashabbusi bilan kombinat faxriylari va ularning oila a'zolari uchun "NKMK tarixi" muzeyiga ekskursiya tashkil etildi. Ekskursiya ishtirokchilari NKMK tarixi, keyingi yillarda ishga tushirilgan yangi korxonalar hamda tabiiy qazilmalarga boy Qizilqum zaminining qadimiy tarixi haqida hikoya qiladigan eksponatlar bilan tanishdilar.



Fidokorona mehnatlarini bilan korxonada ravnaqiga hissa qo'shgan otaxonlarimizning suhbat va muloqotlarida kombinatimizning shonli tarixi, o'tgan kunlar xotirlandi, Uchquduq, Navoiy, Zarafshon shaharlarining qurilishi, unda jonbozlik ko'rsatgan insonlar yodga olindi. Kombinatar barpo bo'lishining ilk davridagi o'ziga xos qiyinchiliklar, mashaqqatlar haqida ham so'z bordi. Faxriylarning hayajonli xotiralarini yosh avlod vakillari qiziqish bilan tinglashdi va o'zlarini qiziqitirgan savollarga javob olishdi.

Mehmonlar orasida oliy o'quv yurtini tamomlagach, yosh mutaxassis sifatida NKMKga ishga kelib, korxonada 40 yildan ortiq mehnat qilgan, boshqarmaning dispetcherlik xizmatida yetakchi muhandis lavozimida faoliyat olib borgan G.A.Kuzin ham bor edi. U kishining Germaniya davlatida yashayotgan qizi Yelena Gennadevna va nabirasi Anastasiyaning 16 yildan so'ng, azizlarini va qadrdon shahri sog'inib, Navoiy shahriga mehmon bo'lib kelgani hamda faxriylar Kengashining ularni bu ekskursiyaga taklif qilgani Gennadiy Aleksandrovichni quvontirdi. G.Kuzin cheksiz iftixor bilan farzandi va nabirasiga muzey eksponatlarini ta'rifi berdi. Ekskursiyadan muzeyga tashrif buyurgan faxriylarning farzandunabiralari ham katta taassurot oldilar.

Diyordorlashuvga sabab bo'lgan ekskursiya so'ngida namoyish etilgan NKMK ravnaqiga va Navoiy shahri qurilishi tarixiga oid hujjatli filmlar zo'r qiziqish bilan tomosha qilindi. Mehmonlar ekskursiya juda maroqli o'tganligini ta'kidlab, NKMK faxriylar Kengashiga o'z minnatdorliklarini bildirishdi.

Dilrabo RAHMATOVA,
"NKMK tarixi" muzeyi mudiri.

MO'JIZAKOR BAYRAM

Butun dunyo bo'ylab nishonlanadigan ko'plab bayram va shodiyonalar bor. Ulardan eng jo'shqin va mo'jizalisi bu, shubhasiz, yangi yil, desak mubolag'a bo'lmaydi. Qishning sovug'iga qaramay har bir uyga iliqlik olib kiradigan bu bayramni hammadan ham jajji bolajonlar orziqib kutadi.

Bizning "Yulduzcha" davlat maktab-gacha ta'lim tashkilotida ham Yangi yil bayrami har tomonlama tashkilotchilik ko'rilgan tarzda ko'tarinkilik bilan nishonlandi. Ertaknamo bezatilgan zal va foyelalar, bolajonlarning orzulari kabi tiniq va yorqin qorparchalari ularning qalbiga quvonch baxsh etadi. Har bir guruh tadbiri "Yangi yil bazmi" shiori ostida yuqori saviyada o'tkazildi. Bolajonlarimiz tomonidan tayyorlangan quvnoq qo'shiq va go'zal raqslar, ravon va ifodalay tashkil etilgan tomoshabin va mehmonlarimizga behad manzur bo'ldi. Yangi yil bazmining eng kutilgan mehmoni bo'lmish Qorbobo va Qorqiz barchaga sovg'alari ulashishdi. Bolajonlar Qorboboning savollariga biyron tillari bilan burro javob qaytarganliklarida biz, tarbiyachilar mehnatimiz samarasini

ko'rib quvondik. Bayram tadbirlarida "Oppog'oy va 7 gnom", "Kay va Gerda", "Ayozbobo" kabi ertak qahramonlari ishtirokidagi sahna ko'rinishlari namoyish etildi. Bolajonlarimiz bayramga mos bezatilgan yam-yashil archa atrofida qo'l berib aylanib, jo'rlikka "Yangi yil" qo'shig'ini kuytashdi. Har bir bolaning ko'zida mo'jizaga ishonch uyg'otgan Yangi yil bayrami bolalar qalbiga uzoq yillar saqlanib qolishi shubhasiz. Yangi yilni katta orzu-umidlar bilan kutib olgan kunlarimizda bolajonlarimizga yaxshi tilaklar hamroh bo'lishini tlayman. Zero, har bir yangi yil ular uchun porloq kelajak eshiklarini ochadi.

Maqsuda BARATOVA,
Karmana tuman 17-son DMTT direktori.

Starshее pokoleniye

Выход на пенсию может стать залуженным отдыхом, но чаще становится серьезным стрессом. Человек, всю жизнь проведенный на работе, привыкший рано вставать, торопиться и суетиться, вдруг оказывается в вакууме. И, вроде бы, все хорошо... Но возникает ощущение пустоты и бессмысленности. Жизнь резко изменилась, и многие пожилые люди просто не знают, куда себя деть. Тем более, когда из супругов кого-то уже нет в живых, а взрослые дети живут своими заботами.

СТАРОСТЬ В РАДОСТЬ

Если родственники помещают пожилого человека в платный дом престарелых, проблема занятости решена. В подобных заведениях санаторного типа старики имеют возможность общаться с единомышленниками, заниматься тем, что им нравится.

В Навоийской области домов для престарелых нет, да и в целом общество не готово принять данный факт, как будто в таком случае получается, что дети бросают своих родителей, не желая смотреть за ними на старости лет...

На примере одного из тысячи людей мы расскажем, что жизнь на пенсии бывает активной, интересной и совсем не скучной.

Новая жизнь на пенсии.
Пожилые люди, сохранившие активность и работоспособность, также имеют возможность начать новую жизнь. Пенсия может оказаться очень продуктивным и интересным временем. Важно не позволять тоске и чувству брошенности заполнить жизнь. Чем быстрее пожилой человек начнет задумываться о том, как распланировать свою новую жизнь, тем быстрее он избавится от депрессивных состояний, тревожных мыслей и плохого настроения.

В соответствии с постановлением Кабинета Министров Республики Узбекистан «О дополнительных мерах по созданию благоприятных условий для пенсионеров и ветеранов в сфере горной и металлургической промышленности Республики Узбекистан» от 20 октября 2021 года, впервые в истории отрасли образованы Совет ветеранов горной и металлургической промышленности и его

территориальные филиалы.

В задачи данного Совета входят удовлетворение духовных потребностей, обеспечение законных прав и интересов ветеранов горной и металлургической промышленности, их достойной жизни и социального положения в обществе, повышение роли и значения организации Совета, каждого ветерана в жизни трудовых коллективов АО и других предприятий горной и металлургической промышленности республики, содействие в разработке и реализации практических мер по улучшению социального и материального благосостояния ветеранов, оказанию им бытовых, медицинских, культурных и других видов услуг, а также спортивных мероприятий с участием ветеранов, проведение встреч с молодежью.

Членом такого Совета является бывший работник НГМК 74-летний Вапукул Алимов, 12 лет из которых он на заслуженном отдыхе. Выход на пенсию дал возможность больше времени проводить на воздухе. Участок на земле, хозяйство, огород. Визиты внуков, домашние праздники. Живи и радуйся. Но выяснилось, этого недостаточно человеку, привыкшему работать в больших коллективах, быть на виду, выполнять существенные дела. Поэтому Вапукул Алимов принял решение не упустить возможность быть полезным обществу и, в первую очередь, самому себе.

Родился я 22 мая 1950 года. По окончании Ташкентского политехнического института по специальности «Машины и технология литейного производства» в 1974 году начал трудовую деятельность

на Андижанском машиностроительном заводе инженером технологом, на котором проработал 4 года, - рассказывает Вапукул Алимович. - Затем много лет работал на Навоийском машиностроительном заводе. Потом читал лекции в Навоийском государственном горно-технологическом университете, Горном колледже. И сегодня продолжаю работать со студентами, провожу занятия и в НГГТУ, в Навоийском государственном педагогическом институте и в Алмалыкском филиале НИТУ МИСИС.

Наш активист Вапукул-ака, помимо преподавательской деятельности, задействован в других масштабных мероприятиях, организованных Советом ветеранов, - рассказывает руководитель Навоийского филиала Совета ветеранов горной и металлургической промышленности Республики Узбекистан Нишон Эсиргапов. - Он встречается с молодежью на заводах и делится своим большим опытом работы. Еще Вапукул Алимович член постоянно действующей комиссии по изучению социального положения пенсионеров. Посещает больных, лежащих людей, оказывая моральную и материальную помощь старикам, оставшимся в беде. На данную благотворительную акцию выделяются денежные средства, за счет которых и делаются добрые дела.

Бывают случаи, когда старики жалуются на своих взрослых безработных внуков, отбирающих пенсию, тогда мы выезжаем на места и проводим воспитательные работы. Двум ребятам из Зарафшана и Учкудука помогли трудоустроиться через центры занятости, за что и пенсионеры, и их внуки несказанно благодарны. Основной проблемой, из-за которой в семьях возникают конфликты является денежный вопрос. Совет ветеранов всегда готов прийти на помощь малоимущим пенсионерам.

16 тысяч неработающих и 2 тысячи работающих пенсионеров по комбинации - цифра объемная и значимая. И перед коллективом Совета ветеранов и 40 активистами, которые работают на свободных началах, стоят важные задачи



по созданию радостной жизни пожилым людям. Для этого организовываются духовно-просветительские, культурные, а также спортивные мероприятия с участием ветеранов, проведение встреч с молодежью, праздничные вечера в знаменательные даты.

Вапукул Алимов яркий участник всех вышеперечисленных мероприятий. Он регулярно участвует в турнирах по шахматам и шахматам, в играх КВН, «Что? Где? Когда?», «Заковат». Ездил на соревнования по рыболовству, которое состояло в Уртасарайском районе Ташкентской области. В борьбе среди пенсионеров рыбаков-любителей из Алмалыка, Бекабада и Навоийской области Вапукул Алимович занял почетное третье место.

Вапукул Алимов представлен к награде, учрежденной Советом ветеранов горной и металлургической промышленности Республики Узбекистан, - нагрудному знаку «Фаол фахри».

С 9 утра каждый день я в Совете ветеранов, - рассказывает В.Алимов. - Здесь для меня открылась вторая жизнь, мои знакомые говорят, что я стал лучше выглядеть, помолодел. А как же, ведь в Совете я чувствую себя нужным и полезным человеком, моя деятельность и опыт ценятся. Благодарен правительству Узбекистана и руководству НГМК за образование Совета ветеранов.

Многие говорят о том, что пожилой возраст - это время, когда сбываются мечты. Важно помнить, что выход на пенсию - это не диагноз и не знак завершения жизни, а, напротив, начало нового этапа...

Ситора ЯТИМОВА.

"101" oghlantiradi

YANA IS GAZI HAQIDA

Havo haroratining keskin o'zgarishi, kunlarning sovishi issiqlik ta'minoti - isitish jihozlariga bo'lgan ehtiyojimizni oshiradi. Zero, isitish manbalaridan noto'g'ri foydalanish oqibatida is gazi bilan bog'liq ko'ngilsiz hodisalar, eng achinarlisi, favqulodda vaziyatlar yuzaga kelib, insonlar qurbon bo'lishi mumkin. Is gazi nafas yo'llari orqali qonga so'rilganda organizmni, xususan, markaziy asab tizimini jiddiy zararlashi bilan xavfli.

Is gazidan zaharlanish ko'p kvartirali uylardagi xonadonlarni isitishda gaz plitasidan foydalanishda, aholi xonadonlarida pechlar mo'rlarining o'z vaqtida tozalanmasligi, tutun yo'llari va fochkalkalarning yopib qo'yilishi, chet ellarda ishlab chiqarilgan isitish pechlarini, nostandart va qo'lbo'la isitish vositalaridan noto'g'ri foydalanish oqibatida, yuzaga kelishi mumkin. Ma'lumki, xonadonlarda foydalanilayotgan tabiiy gazning asosiy qismi metandan iborat. Tabiiy gaz arzon, saqlash uchun joy talab qilmaydigan va chiqindisiz yonadigan qulay yoqilg'idir.

Shu o'rinda tabiiy gazdan zaharlanishga ham to'xtalib o'tamiz. Metan (maishiy ehtiyojlar uchun ishlatiladigan gaz) rangsiz va hidsiz bo'lganligi uchun u bilan zaharlanayotganligini insonlar sezmaydi. Gaz aralashgan havodan nafas olish jarayonida sog'liqdagi o'zgarishlar, uning yomonlashishini darhol his qilishi deyarli mumkin emas. Tabiiy gazga o'ziga xos hidga ega bo'lgan boshqa turdagi gazlar aralashiriladi. Shunga qaramay, maishiy gaz bilan zaharlanishlar ham sodir bo'ladi. Buning sababi isitish pechlarini yoki gaz plitasidan gazning sizib chiqishidir.

Metan gazning havodagi miqdori 20 foiz atrofida bo'lganida organizmga salbiy ta'siri sodir bo'ladi. Nafas olish paytida gaz qonga o'tadi, kislorod o'rmini bosadi va qon orqali tashiladi. Natijada, kuchli kislorod ochligi paydo bo'ladi. Markaziy asab tizimi ta'sirlanib, insonda bo'g'itish vujudga keladi. O'z vaqtida yordam ko'rsatilmasa o'lim holatiga olib keladi.

Tabiiy gazdan foydalanishda xavfsizlik qoidalariga rioya qilmaslik juda ayanchli oqibatlariga olib kelishi mumkin. Chunki metanning ma'lum bir hajmdagi havo bilan aralashmasi portlash (chaqnash)ga sabab bo'ladi. Hususan, o'choq, isitish pechlarini, xona va binolarning ichida tabiiy gaz havo tarkibida 5 foizdan 15 foizgacha miqdordagi to'planib qolsa, kuchli portlash xavfi paydo bo'ladi.

Is gazidan zaharlanishning oldini olish uchun: avvalo isitish ta'minotlari, ya'ni, pechlar, qozonxonalar, suv isitish kolonkalarining sozligi, mo'rikonlarning tozaligini tekshirib chiqish; nosoz, nostandart, qo'lbo'la isitish moslamalaridan, sifatsiz va texnik ko'rikdan o'tmagan gaz ballonlaridan foydalanishga yo'l qo'ymaslik;

bolalarni, imkoniyati cheklangan va mast kishilarni nazoratsiz qoldirmaslik, ularning gaz va elektr moslamalaridan, ochiq olovdan foydalanishlariga yo'l qo'yimaslik, shuningdek, tabiiy gazdan foydalanishda turli xildagi rezina shlanglar, gaz so'rg'ichlardan foydalanmaslik, chet davlatlarda ishlab chiqarilgan isitish moslamalaridan faqat yo'riqnoma bilan yaxshilab tanishib chiqqandan keyingina, shu yo'riqnomaga rioya qilgan holda foydalanish.

Is gazi bilan zaharlangan organizmda uglerod va oqsil almashinuvi buziladi, natijada asidoz atomatlari yuzaga keladi. Qon tarkibida kaliy va kal'siy muvozanati hamda markaziy nerv sistemasi faoliyati buzilishi va shu tariqa inson hayotdan bevaqt ko'z yumishi mumkin.

Birinchi yordam ko'rsatish: zaharlangan kishini zudlik bilan toza havoga olib chiqish;

qiyin nafas olayotgan yoki nafas olish to'xtab qolgan bo'lsa, bemor mustaqil nafas olgunga qadar sun'iy nafas oldirish;

badanni ishqalash, oyoqlarga grekka qo'yish, zaharlanish oqibatlarini tezroq tugatishga imkon yaratish; agar bemor hushida bo'lsa, tananing yuqori qismini qisib turuvchi kiyimlardan bo'shatib, issiq cho'y yoki qahva ichirish.

Is gazidan zaharlanib qolgan kishilar albatta shifoxonaga yotqizilishi kerak, chunki birmuncha keyinroq o'pka va asab tizimi tomonidan og'ir asoratlar vujudga kelishi mumkin. Kasalxonadan chiqqandan so'ng bemorlar terapevt va nevropatolog kuzatuvida bo'lishi shart.

Gaz bilan bog'liq ko'ngilsiz holatlar va favqulodda vaziyatlarning oldini olish choralarini:

gaz va muqobil yoqilg'i (ko'mir, o'tin, neft mahsulotlari va boshqalar) turlaridan foydalanishda xavfsizlik qoidalariga qat'iy rioya eting;

nostandart (qo'lbo'la yasalgan) yoki sertifikatga ega bo'lmagan isitish pechlarini va anjomlaridan foydalanmang;

isitish pechlarini duduronlarining toza va soz holatda bo'lishini ta'minlang;

gaz yoki boshqa muqobil yoqilg'iga moslashtirilgan isitish pechlarini hamda suyuqlatirilgan uglevodorod gaz ballonlarini (anjomlari)ni dam olish (uxlash) xonalariga olib



kirmang; oshxonada o'rnatilgan tabiiy gazda ishlovchi gaz plitalaridan xonalarni isitish maqsadida foydalanmang; xonalarni isitishda ochiq olov (ko'mir va o'tin cho'g'laridan)dan foydalanmang;

havoni almashtiruvchi shamollatish shaxtalari yoki tuynuklarining ochiq va ishchi holatda bo'lishini ta'minlang.

Xonadonlarga gazni aniqlovchi qurilma o'rnatish tavsiya qilinadi. Bu kutilmaganda is gazi va tabiiy gaz sizib chiqish holatlarini darhol aniqlash hamda bartaraf etish imkonini beradi.

Gaz ballonlarini issiqlik manbaiga yaqin joyda qoldirmaslik lozim.

Agar xonada gaz hidini sezsangiz, chiroq va uchqun chiqaruvchi moslamalardan foydalanmang, darhol xonani shamollatish chorasini ko'ring. Bu haqda "104" raqami orqali gaz xizmatiga, yong'in sodir bo'lgan taqdirda, yong'in-qutqaruv xizmatining "101" yoki "1050" telefon raqamiga xabar bering.

Inson hayoti turli xavf-xatarlarga, favqulodda vaziyatlarga to'la. Zero, umrimiz davomida doimo sergak, ehtiyotkor va oqoh bo'lish nafaqat o'zimiz va yaqinlarimizning salomatligini avaylashga, balki, beqiyos qimmatga ega bo'lgan hayot atalmish bebaho ne'matning qadriga yetish, uning bardavomligi va farovonligini ta'minlashga zamin yaratadi. Shuni unutmaslik kerakki, har qanday favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularga qarshi kurashishga barchamiz birdek mas'ulimiz. Is gazidan zaharlanib qolishdan o'zingiz va atrofingizdagilarni asrang.

Javlon UMIROV,
"NKMK" AJ va "Navoiyuran" DK OYOXTTEM inspektori, katta serjant.

